

## Kashandalik illati

✘ Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 3-talabalar turar joyida 2018-yil 31-may kuni pedagogik tarbiyachisi Aziza Xaitova hamda navbatchi o'qituvchilar, ya'ni "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti "Davlat kadastrlari" kafedrasida Usmonov Shukurulloxon Rustamjon o'g'li hamda "Iqtisodiyot va menejment" fakulteti "Tillar" kafedrasida Zulxonov Mustafo Jurayevich o'qituvchilar bilan birgalikda 3-Talabalar turar joyining 8-9-qavatlarida talaba yigitlari bilan bugun "Jahon bo'yicha chekishga qarshi kurash" kuni munosabati bilan davra suhbatini bo'lib o'tdi.

Davra suhbatida Aziza Xaitova so'zga chiqib talaba yigitlarga ilmiy-tadqiqotlarining aniqlanishicha, tamaki tutuning tarkibida 3000dan ko'proq har xil zararli kimyoviy moddalar bor. Shulardan ayniqsa, nikotin, ammiak, karbonat angidrid, benzol, poloniy, kadmium kabilari odam organizimiga kuchli zaharli ta'sir ko'rsatishi haqida aytib o'tildi. Ma'ruza juda ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollari bilan murojaat qilishdi va qoniqarli javoblar olishdi.

Davra suhbatini oxirida Aziza Xaitova har bir inson o'z sog'lig'ini o'zi asrashi uchun zararli oqibatlardan yiroq bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi,- deya davra suhbatini yakunladi.

**3-TTJ pedagogik tarbiyachisi Aziza Xaitova axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov.**